

TILSHUNOSLIKDA “O’LIM” VA “HAYOT” KONTSEPTLARINING MADANIYATLARARO TALQINI

Karimova Dilorom Shavkatovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tilshunoslikdagi “o’lim” va “hayot” konseptlarining badiiy matnlarda til birliklari orqali ifodalanishi yoritilgan bo’lib, “o’lim” va “hayot” konseptlarida noodatiy belgi-xususiyatlar, ochib berilgan. Konseptlarning til birliklari orqali ifodasi dalillangan. Ingliz va o’zbek tillari frazeologik birliklari misolida ko’rsatilgan. Ingliz va o’zbek madaniyatlari orqali konseptlarning ma’no va mohiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: o’lim, hayot, frazeologiya, maqol, konsept, til leksemalari, dafn marosimlari, hayot qoidalari.

Kognitiv tilshunoslikda “kontsept” termini o’tgan asrning 90 – yillaridan beri tilshunoslikda keng qo’llanilib kelinmoqda. Shunga qaramasdan, kontsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas. Ye. S. Kubryakova kontseptni “mental tuzilma va turli tarkibdagi va ko’rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi” ekanini ta’kidlaydi.³² Yu. Shvedova “Kontsept bu – tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki sub’yektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o’z tarixiy ildizlariga ega bo’lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini” qayd etadi. O’zbek tilshunosligida ham “kontsept” tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh. C. Safarov “moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushunchaning tug’ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – kontsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi” ni takidlaydi. O’. Q. Yusupov kontseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo’lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir” deb belgilaydi. Tushuncha va kontseptni farqlash maqsadida olim quyidagicha fikr bildiradi: “Kontsept bilan tushunchani aysbergga o’xshatish mumkin. Agar kontsept aysberg bo’lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”³³. Turli tizimli tillarda “kontsept” atamasi dunyodagi bilimlarni insonlarga namoyon etish shakllaridan biri sifatida olimlar tomonidan qiziqish bilan o’rganilmoqda. Lingvistik olimlardan Ye.S.Kubryakova kontseptga “Inson ongi va uning ruhiy imkoniyatlaridan hamda bilimlari, tajribalarini aks ettiruvchi tafakkurining birligi” – deya ta’rif beradi. Keyingi yillarda zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o’rtasidagi munosabatlar muammolariga bag’ishlangan juda ko’plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tilni o’rganish milliy madaniyatning ishtirokisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Xalqning madaniy merosi tilda aks etib, keyinchalik bu qarashlar tilshunoslikda yangi yo’nalishlarning paydo bo’lishiga sabab bo’lgan. So’nggi vaqtlarda o’zbek tilshunosligida ham kontsept atamasi haqida muhim ma’lumotlar aniqlana boshlandi. Bu sohada olimlar Sh.Safarov, A.Nurmonov, O’.Yusupov, A.Abuduazizov, A.Mamatov, D.Ashurova, M.Galiyeva, D.Agzamova, D.Xudayberganova, B.Mengliyev kabilarning asarlaridagi fikrlarda o’z aksini topganini ko’rish mumkin. Sh.Safarovning fikricha, “kontsept”ning zamiridagi - mental struktura hech qanday moddiy ko’rinishga ega bo’lmaydi, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo’ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmashlik lozim. D.U.Ashurovaning fikricha, “kontsept sifatida barcha tushunchalarni atash noto’g’ri, balki dunyo va milliy madaniyat muhitida o’ziga xos muhim o’rin olgan tushunchalargina kontsept bo’la oladi” deydi. A.Nurmonov tushuncha va kontseptni bitta ma’noga ega narsa deb ataydi: Bu esa ijtimoiy munosabatlar nazariyasi va amaliyoti

³²S.G. Vorkachev esa “Kontsept – tildagi o’z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to’plamidir” deydi. N. www.scientificprogress.uz «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601

³³ Yusupov O’.Q- Ma’no, tushuncha, kontsept va lingvokultúra atamaları xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo’nalishlarida: Ilmiy amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2011. – B. 49.

muammolariga e'tibor qaratilayotgani, tabiiy tilning funktsional tuzilishi psixologiya, sotsiologiya, semiotika, germevtika, falsafa, ritorika, etika, estetika, poetika va boshqa sohalar bilan integratsialashuvni boshladi".

Lingvokulturologiya doirasida "kontsept" tushunchasi semantik ta'limni o'ziga xoslik bilan u yoki bu tarzda belgilab, muayyan etnik madaniyat ishtirokchilarini ifodalaydi. Kontseptning markazi qadriyatlar hisoblanib, u madaniyatni o'rganishga xizmat qiladi, o'z vaqtida madaniyat esa qadriyat tamoyiliga asoslanadi. M.M.Angelovning ta'kidlashicha, "kontsept" tushunchasi tilshunoslikning asosiy ustuni bo'lib u shaxsning ma'naviy madaniyati, jamiyat va uning axloqiy, estetik sifatleri, muayyan lingvomadaniy jamoaning mentalitetiga xos xususiyatlarini o'rganadi. Taniqli kontseptolog olim, prof. Sh.Safarovning fikricha, "kontsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Kontseptning shakllanishi individual obraz tuzilishidan boshlab, ilohiy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Predmet-hodisalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurida obraz hosil bo'lish yo'li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil har akterga ega bo'ladi. Bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishdagi kontseptlar shakllanishiga sabab bo'ladi"³⁴. Rus tilshunos olimasi G.S.Kubryakova kontseptga quyidagicha ta'rif beradi: "Kontsept – mental tuzilma bo'lib, u turli tartibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir"³⁵. Insoniyat olam va uning sir-sinoatlarini kashf etish, bilish borasidagi say'-harakatlari muntazamlik kasb etadi, bu jarayonda insoniyatning, millatning olam haqidagi bilim, tajriba, tasavvurlari kengayib, boyib boradi. Muvofiq ravishda u yoki bu kontseptning belgi, xususiyatlari, ular haqidagi tasavvurlar miqyosi ham takomillashib, tartiblashib boradi. Shu nuqtai nazardan tilshunos olim, professor U.K.Yusupovning "Kontseptlarni insondagi bilim haritasi desa bo'ladi" degan fikri to'g'ridir.

"O'lim" kontseptida noodatiy belgi-xususiyatlar mavjud bo'lib, uning tarkibiy qismini tashkil etuvchi ayrim belgi xususiyatlar nutqiy vaziyatlarda uchraydi. Masalan: dafn marosimi – "dead", eng tinch, sokin payt – "quietly", juda charchagan, toliqqan "very tired, tired", kuchi yo'qolgan qonun – a dead law, ishlatib bo'lingan, endi foydalanilmaydigan narsa – a dead copy, oqmayotgan (ko'lmak) suv – dead water, o'chib qolgan sigaret olovi – a dead fire, ta'msiz – a dead wine, Azroil – death angel, belgilab qo'yilgan vaqt chegarasi–deadline, AQSh qog'oz pullari – dead president (sl.). Yuqoridagi misollardan ko'rinish turibdiki, "o'lim" kontsepti turli odatiy va noodatiy belgi-xususiyatlarga ega bo'lib, kontsept talablaridan hamda kommunikant (suhbatdoshlar) tanlovidan kelib chiqqan holda, muloqot ishtirokchilarining lingvistik va hayotiy tajribasiga mos ravishda voqelashadi. Qiymat insonning ma'lum bir davrdagi dunyoga munosabati bilan, shuningdek, ma'lum bir jamiyatga xos dunyoqarash bilan ajralmasdir. Inson doimo o'zini, jamiyatni, ijtimoiy voqelikni baholaydi, aloqa jarayonida turli xil vositalar bilan o'z munosabatini bildiradi. Baholashning ko'plab talqinlari orasida - kommunikativ (ma'qullash - rad etish), hissiy (yoqimli - yoqimsiz), umumiy (yaxshi - yomon), ratsional (foydali -zararli) kabi turlari keng tarqalgan. Maqollarda millatning o'y-fikrlari ifodalangan bo'ladi. Maqollar munozara yoki biror narsani dalillash shart emas, ularda hukm o'qiydigan temir haqiqat mavjud. Maqollar oddiygina hikmatli so'z emas. Ularda xalqning hayotga bergan bahosi, hayotiy tajribasi mujassam bo'ladi. Har bir maqol o'zi tegishli zamonning bahosini belgilaydi. Inson hayoti o'z ichiga ruxiy, kognitiv, estetik va etik, iqtisodiy qadriyatlarni qamrab oladi. Chunki odamzot umri davomida ularning har biriga duch keladi, ijtimoiy munosabtaga kirishar ekan narsa-hodisalarning ahamiyatini, qiymatini belgilab lisonda ifodalaydi. Inson bahosi lisonda ifodalanar ekan, juz'iy elementlar ham nazardan chetda qolmaydi. Tabiatdagi tabiiy hodisa yoki narsa-predmet ijyimoiy munosabatga kirishib baholangandan keyin tajriba orqali ma'lum qadriyat yoki antiqadriyatga aylanadi. Hayot konsepti o'zbek tilida hayot, tirikchilik, turmush, tiriklik, umr singari ot leksemalar bilan ifodalansa, frazeologizm va paremiyalarda, badiiy adabiyotda

³⁴ Safarov Sh. "Kognitiv tilshunoslik" Samarqand - 2006, B 41-45

³⁵ Кубрякова Г.С. "Язык и знание (на пути знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира)". – М., 2004. С.13,14.

peshona hamda qismat, taqdir obrazlari bilan gavdalanadi. Peshonaga yozilganidan ayrilma yor kabi qo'shiqlar shular jumlasidan.

Hayotning o'zi nima? Hayotda qanday yashash lozim? kabi savollar qadimiy savollardan hisoblanadi. Hayot mavzusiga, uni tahlil qilishga va anglashga faylasuflar, shoirlar va yozuvchilar ko'p marta qo'l urushgan. Hayotga baho berilganda o'sha davrdagi muhit (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) e'tiborga olinadi. O'zbek tilida: "Xush durur Bog'u koinot guli, Barchadin yaxshirog' hayot guli" A.Navoiy, "Murodingni hayoting ichra axtar, Ki mavhum ilm bo'lma axgar" Anbar Otin, "Tajribalar bizning abadiy muallimimiz" Gyote,

"Hayot – harakat, harakatsizlik – o'limdir" Levis Morris,

"Tiriklik jismning idrok va harakatga ega bo'lmog'i demakdir" Ibn Sino. Ingliz tilida: "The flower of the universe is beautiful, The flower of life is better than all" A. Navoi, "Search for your purpose within your life, That it may not be an abstract knowledge" Anbar Atin, "Experience is our eternal teacher" Goethe,

"Life is movement, inaction is death" Lewis Morris,

"Living means that the body has perception and movement" Ibn Sina.

Demak, Navoiyda hayot eng oliy qadriyat sifatida tasvirlangan bo'lsa, Anbar Otin maqsad bilan yashash hayot qonuni ekanligini ta'kidlaydi. Harakat, tajriba, idrok G'arb va Sharq falsafasida hayotiylikni ta'minlovchi kuch sifatida baholangan va bu bir qator maqollarda ham aks etgan.

Rozin hayot haqidagi madaniyatshunoslikdagi turlicha baholanadigan to'rtta vaziyatni ajratib ko'rsatdi:

1) hayot ijobiy qiymat sifatida, ba'zan eng yuqori qadriyat sifatida (hayot hamma narsa, o'lim ham hech narsa);

2) hayot salbiy qiymat sifatida: hayot azob-uqubat kabi);

3) hayot inson uchun tushunib bo'lmaydigan koinot singari;

4) ikki tomonlama hayot darajasi (ikki dunyo mavjud bo'lgan madaniyatga xos xususiyat: xudolar va odamlar). Tadqiqotchi pessimizmni hayotga tahdid deb biladi. Nitsshe fikricha mavjud bo'lgan hamma narsa hayotdi.

Hayot tushunchalari tahlilida barcha aksiologik fikrlarni uchta blokka birlashtirilish mumkin:

1) hayot eng oliy qadriyat sifatida (hayotdan qimmatroq narsa yo'q);

2) hayot – qurbonlik sifatida. Inson kimdir yoki nimadir uchun o'limga qodir bo'lgan holatlar mavjud. Bunday holatlar inson hayotdan ko'ra qadrli deb biladigan qadriyatlarni keltirib chiqaradi; Frazeologiyadagi hayotning aksiologik ifodasi bir qator ishlarda tahlil qilingan.³⁶ Bu insonga ta'sir o'tkazib, uni harakatga keltiradi, o'zgartiradi, unga yordam beradi; O'zbek tilida: hayot - sudya, hayot – ustoz, hayot – tajovuzkor, Ingliz tilida: "life is the judge, life is the teacher, life is the aggressor" deb baholanadi. Inson, asosan, passiv, hayotga bo'ysunadi, faqat hayotni ayblashi yoki undan shikoyat qilishi mumkin. Biroq, zamonaviylik insondan ko'proq faollikni talab qilmoqda, va bu asosan, publisistik kontekstlarda o'z ifodasini topgan: hayot sherik, hatto qul sifatida qabul qilinadi.³⁷ Maqolamizda "inson-hayot" munosabatlarini yoritishda inson ruxiyati bilan bog'liq qadriyatlar ifodalangan maqollarni tahlilga tortdik. Bu qadriyatlar motivatsion xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqollarni quyidagi semantik maydonlarga bo'lib o'rganish mumkin: Inson - hayotda eng oliy qadriyat: Odam – oltindan qimmat; Odamning qo'li gul; Inson – gavhari qobil; Odam olamning oltin toji. Xuddi shuning uchun ham insonning ongi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, undan tashqarida turgan bironta qadriyat bo'lishi mumkin emas. Zero, Navoiy dunyoqarashi va qadriyatlari negizida ham insoni "sharif" ulug'lanadi: "Barchasini garchi latif aylading, Barchadin insonni sharif aylading" Hayotda inson hamisha yaxshi niyat bilan yashashi lozim:

³⁶ Краснобаева-Чёрная Ж.В. Aksiologicheskiy fenomen zhizni vo frazeologii: zhizn' kak tsennost' i zhizn' kak sistema tsennostey. Vestnik VGU. seriya: lingvistika i mezhkulturnaya kommunikatsiya. 2015. № 4.С.31-35.

³⁷ Иланова О.А. концепт «жизнь» в русской языковой картине мира: лингвокультурологический и лексикографический аспекты. АВТОРЕФЕРАТ (дисс. кан. фил. наук.) Санкт-Петербург, 2005. С. 28.

‘Yaxshi niyat – yarim davlat; Umid o‘lmas, rizq kamimas. O‘z o‘rniga ega bo‘lishlik - tiriklik: O‘lik bo‘lib go‘rda yo‘q, Tirik bo‘lib to‘rda yo‘q; O‘lik bo‘rini it tishlamas.” Maqsud Shayxzoda ham: Umrlar bo‘ladiki, o‘ligida tirikdir, Odamlar bo‘ladiki, tirigida o‘likdir, - degan misralari ham yuqoridagi maqollar mazmuniga teng. Rizq-nasiba Ollohdan: O‘zbek tilida: “Har kim nasib qilganini olar; Yugurganniki emas, buyurganniki; hayot – eng oliy hakam: Tadbirning yengi bilan, Taqdirni yashirib bo‘lmas; Toshga soch, toleyingdan ko‘r; Turnani tuzoq bilan tutib bo‘lmas; Tuya qochib yukdan qutilmas; Taqdirning balosi ko‘p, Saqlasa panosi ko‘p. Bir kam dunyo: Tuyog‘i butun tulpor yo‘q, Qiyog‘i butun tulpor yo‘q; Qismat – betakror: Har kimga - bir uy, bir go‘r. Hayot harakatdan iborat: Tirik bandaga tinim yo‘q;” Ingliz tilida: “Everyone gets what they deserve; Not the one who runs, but the one who orders; life is the supreme judge: You cannot hide fate with the sleeve of fate; Throw a stone, but be blinded by your fate; You cannot catch a crane with a trap; A camel cannot escape its load by running away; Fate has many misfortunes, But if it is saved, there is plenty of shelter. The world is short: There is no vulture with all its hooves, No vulture with all its wings; Fate is unique: For everyone - one house, one grave. Life consists of movement: There is no rest for a living servant; Shuningdek, oldiga qo‘ygan maqsad va harakatlariga bilan taqdirni o‘zgartiradigan kuch egasi sifatida maqollarda gavdalanadi. Zero, Tadbirga taqdir hayron singari qiymat egalari fikrimiz isbotidir. Hayot haqidagi insonning ma’naviy qarashlari nutqda voqealanar ekan, xalqning diniy, milliy qadriyatlarini kategoriyalashtirish bilan amalga oshadi. Hayotga baho berishda, albatta, inson omili birlamchidir; inson ijtimoiy hodisalarga baho berar ekan, tabiiy ravishda qiymat shakllanib, milliy ongda tafakkur etiladi. Badiiy matnning kontseptual makonini tadqiq qilishga shubhasiz tilshunos olimlar tomonida katta qiziqish bilan qaraladi.

Kognitiv tilshunoslikdagi asosiy tushuncha – kontsept haqida turli olimlarning fikrlarini o‘rgangan holda kontseptning ta’rifi bo‘yicha yakdil xulosaga kelinmagani ma’lum bo‘ldi. Ko‘rinadiki, o‘rganilayotgan tillar madaniyatida to‘y mavzusi muhim ahamiyatga ega va tadqiq etilayotgan tillarda ushbu kontseptning ifodalovchilari o‘zaro farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. S.G. Vorkachev esa “Kontsept – tildagi o‘z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to‘plamidir” deydi.
2. N. www.scientificprogress.uz «Scientific Progress» Scientific Journal ISSN: 2181-1601
3. Yusupov O.Q- Ma’no, tushuncha, kontsept va lingvokulturema atamallari xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2011. – B. 49.
4. Safarov Sh. “Kognitiv tilshunoslik” Samarqand - 2006, B 41-45
5. Кубрякова Г.С. “Язык и знание (на пути знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира)”. – М., 2004. С.13,14.
6. Краснобаева-Чёрная Ж.В. Аксиологический феномен жизни во фразеологии: жизнь как ценность и жизнь как система ценностей. Вестник ВГУ. серия: лингвистика и межкультурная коммуникация. 2015. № 4.С.31-35.
7. Иланова О.А. концепт «жизнь» в русской языковой картине мира: лингвокультурологический и лексикографический аспекты. (дисс. кан. фил. наук.) Санкт-Петербург, 2005. С. 28.
8. Abduraximova, F. K. Ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi maqollarning paremiologik birlik sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari (peculiarities of english, uzbek and russian proverbs as paremiological units). Current approaches and new research in modern sciences.